



BERDAQ IJODINING O'ZBEK VA QORAQALPOQ ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Raximova Azizabonu Akmalovna

Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti Davolash ishi va tibbiy
pedagogika fakulteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460490>

ARTICLE INFO

Received: 11th December 2022

Accepted: 18th December 2022

Online: 19th December 2022

KEY WORDS

Qo'lyozma, adabiy meros, lirik she'rlar, falsafa, xalq og'zaki adabiyoti.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Berdaq ijodining o'zbek va qoraqalpoq adabiyotida tutgan o'rni, Berdaqning asarlaridagi ko'tarilgan g'oyalarni naqadar dolzarbligi, Berdaqning she'r va dostonlarining mohiyati, tarixi, o'rganilishi, ahamiyati, ushbu faylasufning ayrim she'rlaridagi falsafiy g'oyalarning mazmun-mohiyatlar haqida batafsil bayon etilgan.

Berdaq bu ijodkorning taxallusi hisoblanib, uning asl ismi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li. U nafaqat shoir, balki qoraqalpoq adabiyoti asoschisi ham. Mutafakkir to'g'risida ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. Uning tarjimai holi va ijodiga oid ma'lumotlarni, asosan, o'zining asarlarida uchratish mumkin. Adib 1827-yilda Orol dengizining janubida joylashgan Mo'ynoq tumanining Oqqal'a degan joyida dunyoga kelgan.

Berdaq o'n yoshligidayoq otasi Qarg'aboy Bo'ronboy o'g'li va onasidan ayrilgach, amakisi Qo'chqorboyning qo'lida tarbiya ko'ra boshlaydi. Berdaq o'n yoshidan ovul maktabiga, maktabni bitirgandan so'ng o'z bilimni yanada chuqurlashtirish maqsadida o'sha davrda yirik ilm maskani hisoblangan Qoraqum eshon madrasasida tahsil oldi. U yoshligidan boshlab she'r yozishni mashq qila boshladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Berdaq lirik she'rlarida, dostonlarida qoraqalpoq xalqining XVIII-XIX asrlardagi ijtimoiy hayoti o'z ifodasini topgan. U o'z

davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. Berdaqning ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzudir. Shoir haqiqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchun fidokor kurashchilarni orzu qiladi. Tarixni mavzudagi "Avlodlar", "Omongeldi", "Azadosbiy", "Ernazarbiy" asarlarida shoir xalq qahramonlarini faxr bilan kuylaydi. Berdaqning "Avlodlar" asari tarixiy voqealar solnomasi bo'lib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi firoqlari bayon qilinadi. Berdaq ba'zi tamagir ruhoniylarning kirdikorlarini fosh etadi, ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni sevishga, ma'rifat cho'qqilarini egallashga chaqiradi. She'riy mushohadalari va hayotga qarashlarida Berdaq mehnatkashlarning baxtiyor yashashini orzu qiladi.



Natijalar:

Berdaq xalqni baxtli qilish haqida o'ylar ekan, Allohdan madad so'raydi, baxt haqida fikr yuritadi, odil podshoni orzu qiladi, baxtiyor yashaydigan jamiyat qurilishiga umid qiladi. Berdaq ijodi xalq og'zaki adabiyoti an'alariga yaqin turadi. Ijodi serqirraligi, asarlarining g'oyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqalpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi. Uning ko'pgina asarlari o'zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan.

O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi. Toshkent shahridagi xiyobonlardan biriga Berdaq nomi berildi va byusti o'rnatildi. Shoir tugilgan joy - Bo'zatovda ham byusti o'rnatilgan. Nukus shahrida Berdaqga haykal qo'yilgan, musiqali drama teatri, ko'cha va maktabga Berdaqning nomi berilgan. Berdaqning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan adabiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g'oyalari hozirgi mustaqillik sharoitida ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Muhokama:

Berdaq ijodini o'rganish, qo'lyozmalarini izlab topish ishlari o'tgan asrning 30-yillaridan keyin boshlangan. Shundan so'ng uning she'r va dostonlari avval ona tilida keyin boshqa bir qator tilda bosilib chiqdi. Uning hayoti va ijodini chuqur o'rganishga kirishildi. Mamlakatimiz istiqbolga erishga, Berdaq hayoti va ijodiga munosabat tubdan o'zgardi. 1998 yilda Yurtboshimiz farmoniga binoan Berdimurot Qarg'abay o'g'li Berdaq tavalludining 180 yilligi keng nishonlandi. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti qoshida Berdaq Milliy muzeyi tashkil etildi.

Berdaqning she'r va dostonlaridagi ko'tarilgan falsafiy g'oyalarda o'sha davrga, keyingi va bugungi davrlarga ham xos dolzarb masalalar borligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham ushbu faylasufning ijtimoiy- siyosiy qarashlari keyingi davr xalq ijodkorlariga samarali ta'sir ko'rsatgan. Berdaq shaxsini juda hurmat bilan tilga oladilar, uning falsafiy g'oyalari, uning she'r va dostonlarida chuqur ma'no-mazmun mujassamligiga va uning falsafiy dunyoqarashi zamonidan ancha ilgari ketganligiga tan beradilar. Chunki uning falsafiy g'oyalarining asosida inson turganligi, insoniyatni naqadar ulug'laganligi, ularni erkin fikrlashga chorlaganligi, ozodlikka erishishga bo'lgan jasoratini ko'rsata olganligi va insoniyatni bu dunyoda yaxshi yashashga undaganligi bunga misol bo'la oladi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har bir xalqning o'zligini, milliy mavqei va qadr-qimmatini dunyoga tanituvchi ulug' farzandlari bo'ladi. Ularning qoldirgan o'lmas meroslari ayni xalqning nafaqat o'tmishini, balki buguni va kelajagini ham belgilaydi. Biz ulug' Berdaq shoirni nafaqat qoraqalpoq, butun xalqimizning ana shunday ardoqli farzandlaridan biri sifatida doimo qadrlanadi. Ushbu muzey bugungi kunda Qoraqalpog'istondagi ziyo maskanlaridan biri sanaladi. Ayni paytda bu erda bu erda Orolbo'yi xalqlari tarixi va adabiyotiga oid 3000 dan ortiq eksponat saqlanadi. Ular orasida Berdaqning nigohi tushgan bir qator nodir kitoblar, qimmatli qo'lyozmalar, tarixiy liboslar, cholg'u asboblari alohida o'rin tutadi. 2014 yilda muzey xazinasi yana bir nodir eksponat bilan boyidi.



References:

1. "O'rta Osiyo xalqlari hurfikrligi tarixidan" T.: Fan. 2001.
2. Falsafa qomusiy lug'at, Toshkent, Sharq- 2003.
3. B.Qurbonboyev Berdaq va o'zbek adabiyoti. T., 2005.
4. Abdullayeva.M, Abdurashidov.M, Abilov.U va boshqalar, Falsafa qisqacha izohli lug'ati, Toshkent, Sharq-2004.